

KICHIK SANOAT ZONALARI TO‘G‘RISIDA

USLUBIY QO‘LLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025

Kichik sanoat zonolari to'g'risida uslubiy qo'llanma. –
Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – ** b.

Ushbu uslubiy qo'llanma kichik sanoat zonalarining tashkil etilishi va samarali faoliyat yuritishining huquqiy, tashkiliy hamda iqtisodiy asoslarini yoritib berishga qaratilgan. Mazkur qo'llanma yordamida kichik sanoat zonalarini shakllantirish jarayonida davlat organlari, mahalliy hokimiyatlar hamda tadbirkorlik subyektlarining o'zaro hamkorligi, mavjud imkoniyatlar va huquqiy mexanizmlar aniqroq tushuntiriladi.

Kichik sanoat zonolari hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, mahalliy xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, ular ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash va eksport salohiyatini rivojlantirishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu uslubiy qo'llanma kichik sanoat zonalarining huquqiy asoslari, boshqaruv tartibi hamda imtiyoz va preferensiyalar tizimini yoritib, tadbirkorlik subyektlari, amaliyotchi mutaxassislar va mahalliy hokimiyat vakillari uchun muhim metodik qo'llanma vazifasini bajaradi.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y.

**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2012-yil 10-apreldagi 4434-son
“To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb
etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha
chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2025-yil 30-maydagi 90-sonli
“Xalqaro moliya institutlari va
xorijiy hukumat moliya tashkilotlari
ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va
amalga oshirish samaradorligini oshirish
chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni



Vazirlar Mahkamasining
2020-yil 9-martdagi 134-sonli
“Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi
nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori



KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, hududlarda sanoat salohiyatini rivojlantirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, kichik sanoat zonalarini tashkil etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini mahalliyashtirish, resurslardan samarali foydalanish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda hududlarda aholining bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bosqichma-bosqich joriy etildi.

Kichik sanoat zonolari mahalliy tadbirkorlar uchun zarur infratuzilma, ishlab chiqarish uchun qulay sharoit va imtiyozlarni taqdim etib, iqtisodiy faollikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ularning faoliyati eksport salohiyatini kengaytirish, mahalliy xomashyo bazasidan oqilona foydalanish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hamda raqobatbardosh muhitni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur uslubiy qo'llanma kichik sanoat zonalarini tashkil etish, boshqarish va ulardan samarali foydalanish jarayonida zarur bo'lgan huquqiy asoslar, tashkiliy mexanizmlar hamda amaliy ko'rsatmalarni yoritishga qaratilgan. Qo'llanma davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari vakillari, mahalliy hokimiyatlar, tadbirkorlar va ilmiy-amaliy soha mutaxassislari uchun metodik yordamchi material sifatida mo'ljallangan bo'lib, amaliy faoliyatda foydalanish imkonini beradi.



Umumiy qoidalar

Mazkur uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Kichik sanoat zonasi (keyingi o'rinlarda Kichik sanoat zonasi deb ataladi) — ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, aholi punkti hududining yoki aholi punktlararo hududning qonunchilik hujjatlari bilan muayyan maqom berilgan hamda hududi doirasida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaga ega bo'lgan ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan qismi;

- **Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahardagi erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining ma'muriy kengashlari (keyingi o'rinlarda Ma'muriy kengash deb ataladi)** — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar vakillaridan iborat namunali tarkibda tashkil etiladigan kollegial organ;
- **ijarachi** — investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun yer uchastkasi va/yoki ishlab chiqarish maydonlarini uzoq muddatga ijaraga olgan Kichik sanoat zonasi ishtirokchisi;

- **ijaraga beruvchi** — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi Kichik sanoat zonasini boshqarish direksiyasi;
- **direksiya** — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari qarorlariga asosan Kichik sanoat zonasi faoliyatini tezkor boshqarish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida tashkil etiladigan davlat muassasasi shaklidagi yagona direksiya;
- **yer uchastkasi** — yer fondining aniq chegarasi, maydoni, joylashgan joyi, huquqiy rejimi va davlat yer kadastrida aks ettiriladigan boshqa tavsiflariga ega qismi;
- **investitsiya majburiyatlari** — investitsiya loyihasini amalga oshirishda talabgor tomonidan qabul qilinadigan, pul bilan ifodalanadigan qiymatga ega bo‘lgan va qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lmagan shakllarda amalga oshiriladigan majburiyatlar;
- **muhandislik-texnik kommunikatsiyalar** — Kichik sanoat zonasi ishtirokchilarini elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv ta‘minoti, kanalizatsiya, transport kommunikatsiyalari va boshqa xizmat turlariga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlovchi tashqi muhandislik kommunikatsiyalari va infratuzilma;
- **tanlov** — investitsiya loyihasini talabgorlar tomonidan tanlov hujjatlarining mezonlari va shartlariga muvofiq taqdim etilgan eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali tanlab olish tartiboti;

- **yangi ish oʻrni** — Kichik sanoat zonasi hududida loyihani amalga oshirish doirasida yangi ishchi bilan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shartnoma tuzish orqali Kichik sanoat zonasi ishtirokchisi tomonidan tashkil etiladigan (joriy etiladigan) ish oʻrni;
- **vakolatli vakil** — talabgorning yozma ishonchnomasiga asosan tanlovda ishtirok etish uchun vakolat berilgan jismoniy shaxs;
- **talabgor — tadbirkorlik subyekti** — taklif etilgan shartlar asosida tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan nodavlat yuridik shaxs;
- **Kichik sanoat zonasining loyiha-rejalashtirish hujjatlari** — aholi punktining bosh rejasi yoki muayyan chegaralarda qishloq hududini (mavjud boʻlganda) belgilangan tartibda tashkil etishning arxitektura-rejalashtirish loyihasi asosida ishlab chiqiladigan Kichik sanoat zonasining bosh rejasi;
- **ishlab chiqarish maydoni** — Kichik sanoat zonasi hududida joylashgan va Kichik sanoat zonasi ishtirokchilariga uzoq muddatli ijara huquqi asosida foydalanishga beriladigan davlat mulki boʻlgan ishlab chiqarish bino va inshootlari;
- **Maʼmuriy kengashning ishchi organi (keyingi oʻrinlarda ishchi organ deb ataladi)** — Qoraqalpogʻiston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiyot va sanoat bosh boshqarmalari;

- **vakolatli organ** — qurilishi tugallangan obyektning foydalanishga qabul qilish uchun Ma'muriy kengash tomonidan belgilanadigan organ;
- **Kichik sanoat zonasi ishtirokchisi** — belgilangan tartibda Kichik sanoat zonasi ishtirokchisi maqomini olgan va Kichik sanoat zonasi hududida ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyekti;
- **Kichik sanoat zonasi ishtirokchisining o'z mablag'lari** — Kichik sanoat zonasi ishtirokchisining mablag'lari, shu jumladan, hisobvarag'idagi mablag'lar, kredit mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladigan mablag'lar.



KICHIK SANOAT ZONASINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH TARTIBI



Bilib oling!

Kichik sanoat zonasi faqat muhandislik-texnik kommunikatsiyalari mavjud bo'lgan yoki o'tkazish oson bo'lgan faoliyat ko'rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkalari negizida tashkil etiladi.

Yangi Kichik sanoat zonasi tashkil etish va faoliyat ko'rsatayotgan Kichik sanoat zonasi hududining chegaralarini o'zgartirish to'g'risidagi qarorlar O'zbekiston Respublikasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan qabul qilinadi.

DIQQAT QILING!

Kichik sanoat zonasi hududining chegaralarini tasdiqlash, shuningdek, ularning keyinchalik o'zgartirilishi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ma'muriy kengash Kichik sanoat zonasi hududining chegaralarini tegishli tuman (shahar) hokimligi bilan kelishgan holda o'zgartirish to'g'risida takliflar kiritish huquqiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining Kichik sanoat zonasini tashkil etish yoki hududining chegaralarini o'zgartirish to'g'risidagi qarorlari Kichik sanoat zonasining kadastr va yer tuzish hujjatlarini tayyorlash, Kichik sanoat zonasining bosh rejasini ishlab chiqish, tadbirkorlik subyektlariga sanoat ishlab chiqarishini hamda unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmani tashkil qilish uchun Kichik sanoat zonasi hududida yer uchastkasini tegishli tuman (shahar) hokimining qarori qabul qilinmasdan berish uchun asos bo'ladi.

DIQQAT!

Bitta tuman (shahar) hududida joylashgan bir nechta ishlab chiqarish maydonlarini bitta Kichik sanoat zonasida birlashtirishga ruxsat etiladi.

Yangi Kichik sanoat zonasi tashkil etish va faoliyat ko'rsatayotgan Kichik sanoat zonasi hududining chegaralarini o'zgartirish masalasini kelishish uchun Ma'muriy kengash O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga quyidagi hujjatlar to'plamini kiritadi:



yangi Kichik sanoat zonasi tashkil etish yoki faoliyat ko'rsatayotgan Kichik sanoat zonasi hududlarining chegaralarini o'zgartirish zaruratini asoslaydigan tahliliy ma'lumot, shuningdek, asosli hisob-kitoblar bilan birga Kichik sanoat zonasining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumot;



yer uchastkasining chegaralari va maydonlari (tuman (shahar) hokimligi tasarrufidagi zaxira yer) to'g'risidagi ma'lumot, shuningdek, negizida yangi Kichik sanoat zonasi tashkil etish yoki yer uchastkalarini faoliyat ko'rsatayotgan Kichik sanoat zonasi tarkibiga

kiritish rejalashtirilayotgan, muhandislik-texnik kommunikatsiyasi mavjud bo'lgan yoki uni o'tkazish oson bo'lgan faoliyat ko'rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkalarining ro'yxati;



yangi Kichik sanoat zonasi tashkil etish yoki faoliyat ko'rsatayotgan Kichik sanoat zonasi tarkibiga kiritish taklif etilayotgan hududning muhandislik-texnik kommunikatsiyasi va ishlab chiqarish infratuzilmasi mavjudligi, shuningdek, infratuzilma obyektlarini qurish bo'yicha asosli hisob-kitoblar va moliyalashtirish manbalari ko'rsatilgan taxminiy talablar to'g'risida ma'lumotlar.

Kichik sanoat zonasi hududida shaharsozlik faoliyati Kichik sanoat zonasining bosh rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Kichik sanoat zonasining bosh rejasi loyiha tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladi va aholi punktining bosh rejasi yoki qishloq hududini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkilotning loyihasi asosida Ma'muriy kengash tomonidan tasdiqlanadi, aholi punktining bosh rejasi yoki qishloq hududini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihasi mavjud bo'lmagan taqdirda, Kichik sanoat zonasining bosh rejasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, viloyatlar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmalari hamda Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashlari bilan kelishgan holda Ma'muriy kengash tomonidan tasdiqlanadi.

Direksiya Kichik sanoat zonasining bosh rejasini ishlab chiqish bo'yicha buyurtmachi hisoblanadi.

Bilib oling!

Kichik sanoat zonasi faoliyati Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida tashkil etiladigan direksiyalar tomonidan boshqariladi.



Direksiyalar davlat muassasasi shaklida tashkil etiladi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadigan ustavlar asosida faoliyat yuritadi yoki xususiy boshqaruv tashkilotlari tomonidan ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida boshqarilishi mumkin.



Direksiya o'ziga biriktirilgan mulklarga nisbatan egalik va foydalanish huquqini, shuningdek, qonunchilik hujjatlariga muvofiq Kichik sanoat zonasi uchun ajratilgan yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini amalga oshiradi.



Direksiya tugatilgan direksiyalarning barcha huquqlari, majburiyatlari va avval tuzilgan shartnomalarining ijrosi bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.



Muhim!

Direksiyaga O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan kelishgan holda, Ma'muriy kengashning qarori bilan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining birinchi o'rinbosari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining birinchi o'rinbosarlari hududlarda Kichik sanoat zonasini rivojlantirish uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi.



KSZ ISHTIROKCHILARINI TANLAB OLISH TARTIBI



Bilib oling!

KSZ hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalari Ma'muriy kengash tomonidan bo'sh maydonlar, bino va inshootlar mavjud bo'lganda, 2 oyda kamida 1 marta o'tkaziladigan tanlov asosida tanlab olinadi.

Quyidagilar investitsiya loyihalarini KSZ hududida joylash-tirishning asosiy mezonlari hisoblanadi:

- Ma'muriy kengash tomonidan belgilanadigan tarmoq xususiyatiga muvofiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish;
- yangi ish o'rinlarini tashkil qilish;
- pul bilan ifodalanadigan qiymatga ega bo'lgan investitsiyalarni qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan shakllarda kiritish;
- muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llagan holda, zamonaviy energiya tejovchi tizimlar va texnologiyalarni joriy etish asosida import o'rnini bosadigan va (yoki) eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar turlari, materiallar va butlovchi buyumlarni ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish.

DIQQAT!

Ma'muriy kengash hudud iqtisodiyotining ehtiyojlari, shuningdek, hududlarning mavjud mineral xom ashyo, yer, suv, qishloq xo'jaligi resurslari, ishlab chiqarish va eksport salohiyati, ekologik sharoitlari va infratuzilmasini inobatga olgan holda, har bir KSZning tarmoq ixtisoslashuvini belgilashga haqli.

Direksiya Ma'muriy kengashning qarori asosida KSZ hududida investitsiya loyihalarini joylashtirish uchun ularni tanlab olish bo'yicha tanlov o'tkazishning barcha tashkiliy masalalarini hal qiladi.

Tanlovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni tashkil etish uchun Direksiya quyidagilarni amalga oshiradi:



Ma'muriy kengashning qaroriga muvofiq tanlovni oldindan e'lon qiladi va o'tkazishni tashkil etadi;



tanlovda qatnashish uchun talabgorlarning muhrlangan buyurtmanomalarini olingan sanasi va vaqtini ko'rsatgan holda qabul qiladi;



talabgorlarning investitsiya buyurtmanomalari solingan konvertlar belgilangan tartibda ochilishiga qadar ularning saqlanishi va maxfiyligini ta'minlaydi;



Ma'muriy kengash tomonidan unga yuklangan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Direksiya tanlovni o'tkazishda investitsiya buyurtmanomalari solingan konvertlar ochiladigan sanadan o'ttiz kun avval mahalliy bosma nashrlarda, Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining yagona portalida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining rasmiy veb-saytlarida tanlov o'tkazilishi haqida e'lon qilinishini tashkil etadi.



Bilib oling!

Investitsiya buyurtmanomalarini qabul qilish tanlov o'tkazilishiga 3 ish kuni qolganda to'xtatiladi.

Direksiya ishchi organga investitsiya loyihalarini tanlab olish bo'yicha tanlov o'tkazish bilan bog'liq barcha zarur materiallarning taqdim etilishini ta'minlaydi.

DIQQAT!

Investitsiya loyihalarini tanlab olish bo'yicha tanlov o'tkazilishi haqidagi e'londa quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:



KSZning tarmoq ixtisoslashuvi;

ishlab chiqarish maydonlari va investitsiya loyihasi amalga oshiriladigan hamda elektron-onlayn auksionga qo'yiladigan yer uchastkalarining nomi, soni, tavsifi, ular joylashgan joy, o'tkazilgan va ulangan muhandislik-texnik kommunikatsiyalar mavjudligi;



buyurtmanomalarni qabul qilishning (kuni va soati ko'rsatilgan holda) oxirgi muddati;



ishchi organning nomi va pochta manzili, bog'lanish uchun telefon raqami, telefaksi, elektron pochta manzili va qo'shimcha ma'lumot olish mumkin bo'lgan boshqa rekvizitlari;



tanlovni o'tkazish (investitsiya buyurtmanomolari solingan konvertlarni ochish) sanasi, vaqti va joyi;



talabgor taqdim etishi lozim bo'lgan zarur hujjatlar ro'yxati;



tutash yer uchastkalari to'g'risida ularning qo'riqlanadigan zonalari (mavjud bo'lsa) hajmlari ko'rsatilgan ma'lumotlar;



investitsiya buyurtmanomolari solingan konvertlarni taqdim etish tartibi va shakli.



Bilib oling!

Tanlovda ishtirok etish uchun talabgor yoki uning vakili bevosita yoki pochta orqali (xabardor qilgan holda buyurtma xati bilan) KSZ hududida investitsiya loyihasi amalga oshirish uchun investitsiya buyurtmanomasini

- 2 nusxada,
- muhrlangan konvertda,
- e'londa ko'rsatilgan muddatlarda direksiyaga taqdim etadi.



KSZ HUDUDLARIDA YER UCHASTKALARINI UZOQ MUDDATLI IJARAGA BERISH TARTIBI

KSZ hududida yer uchastkalari loyiha shartlari asosida elektron-onlayn auksion orqali 10 yilgacha uzoq muddatli ijaraga beriladi.



Muhim!

Ijara shartnomasining barcha shartlarini bajargan ijarachi yer uchastkasi uzoq muddatli ijarasining muddatini uzaytirishda ustuvor huquqqa ega bo'ladi.



Yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olgan ijarachi yer uchastkasini saqlash majburiyatlarini bajarganda, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu yer uchastkasida bino, qurilmalar va inshootlarni qurish yoki buzishga haqli.



Ijarachiga ijaraga berilgan yer uchastkasida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda o'zi tomonidan qurilgan binolar va inshootlarga ular foydalanishga topshirilgani to'g'risidagi dalolatnoma rasmiylashtirilgandan so'ng bir oy muddatda egalik huquqi beriladi.



Ijaraga olingan yer uchastkasini yoki uning qismini subijaraga berish taqiqlanadi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.



Bilib oling!

Uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalari

- oldi-sotdi,
- garov,
- hadya,
- almashtirish obyekti bo'la olmaydi.

Ijarachi o'zining yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqlarini faqat qonunchilik hujjatlarida yoki ijara shartnomasida nazarda tutilgan holatlardagina ijaraga beruvchining roziligisiz garovga berishi mumkin.

KSZ ishtirokchisi tomonidan ijaraga olingan yer uchastkasida barpo etilgan bino va (yoki) inshootlar garov bo'yicha qarzlarni qoplash bilan bog'liq holda sotilganda, hadya qilinganda, almashtirilganda yoki yo'qotilganda, ushbu binolar va (yoki) inshootlar Ma'muriy kengashning qaroriga asosan KSZ ishtirokchisi maqomini olgan yangi mulkdorga o'tadi.

Bunda KSZ ishtirokchisi maqomini yangi olgan shaxs bilan belgilangan tartibda KSZ hududida investitsiya loyihasini amalga

oshirish to'g'risida bitim va yer uchastkasining uzoq muddatli ijara shartnomasi tuziladi.

Direksiya yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun yer uchastkasining uzoq muddatli ijara shartnomasi tuzilgandan so'ng 3 ish kuni mobaynida elektron-onlayn auksion natijalari to'g'risidagi bayonnoma va ijara shartnomasining nusxasini davlat yer tuzish korxonasining filialiga yuboradi.

Davlat yer tuzish korxonasining filiali tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi bilan birgalikda mazkur Nizomning 54-bandidagi hujjatlarni olgandan so'ng ikki ish kuni mobaynida yer uchastkasi chegaralarini naturada belgilaydi, yer uchastkasining chegaralarini natura shaklida ijarachiga ko'rsatadi hamda yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish huquqini belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazadi.



Yer tuzish davlat korxonasi filialining va tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limining yer uchastkasining topografik xaritasini tayyorlash, yer uchastkasining rejasini tuzish, yer uchastkasi chegaralarini naturada belgilash va ko'rsatish bo'yicha bajargan ishlarining qiymati qonunchilik hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.



Ishlar qiymati KSZ ishtirokchisi tomonidan shartnoma asosida to'lanadi.



Uzoq muddatli ijara shartnomasiga rioya qilinmagan taqdirda, ijaraga beruvchi uni bekor qilish uchun tashabbus ko'rsatishga haqli.



Bilib oling!

KSZ ishtirokchisidan yer uchastkasi uzoq muddatli ijara shartnomasi O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida belgilangan tartibda bekor bo'lganda olib qo'yiladi.



YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Kichik sanoat zonasi faoliyatini tugatish haqidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan qabul qilinadi.

Ma'muriy kengash raisi, uning a'zolari va ishchi organi, direksiya direktori va xodimlari, KSZ ishtirokchilari, shuningdek, manfaatdor tashkilotlar rahbarlari tegishli Nizom talablariga rioya etilishiga shaxsan javob beradi.

Nizo va munozaralar sud tartibida ko'rib chiqiladi.

**O'zbekiston Respublikasi investitsiya
dasturini shakllantirish va amalga
oshirish tartibiga oid qo'llanma**

Nashr uchun mas'ullar:

Muharrir:

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. “Calibri” garniturası.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.